

MAKTABGACHA, UMUMIY O'RTA, PROFESSIONAL VA OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA TEXNOLIGIK TA'LIMNING UZVIYLIGINI TA'MINLASH KONSEPSIYASI MAZMUNI

Uluhanov Ibrohim To'xtaxujayevich, professor v.b.(NamDPI)

Ubaydullayev Solijon Qodirovich, dotsent v.b.(AndDPI)

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda mavjud ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiya fani yo'nalishida o'qituvchi pedagog-kadrlarni tayyorlash sifati bugungi kun talablariga mos kelmasligi texnologiya fanini o'qitishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos ravishda yangilashni taqazo etmoqda. Maqolada maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida texnologik ta'limni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini, Konsepsiyada belgilangan talablar asosida tayyorlash va samarali natijalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, uzluksiz ta'lim, uzviylik, texnologiya, dastur, ustaxona, metodik ta'minot, moddiy-texnik baza, elektron darslik, masofaviy ta'lim.

АННОТАЦИЯ

Качество подготовки учителей и педагогов в области современных технологий в существующих образовательных учреждениях нашей страны не соответствует требованиям сегодняшнего дня, требует радикального пересмотра преподавания технологии и обновления его в соответствии с потребностями современного мира. В статье рассматривается вопрос об основных тенденциях развития технологического образования в системах дошкольного, общего среднего, профессионального и высшего образования, подготовке и эффективных результатах на основе требований, определенных в Концепции.

Ключевые слова: образование, непрерывное образование, интеграция, технология, программа, мастер-класс, методическое обеспечение, материально-техническая база, электронный учебник, дистанционное обучение.

ANNOTATION

The fact that the quality of training of teachers and pedagogues in the field of modern technology in the existing educational institutions of our country does not correspond to today's requirements calls for a radical revision of the teaching of technology and updating it in accordance with the needs of the times. The article talks about the main trends in the development of technological education in

preschool, general secondary, professional and higher education systems, preparation and effective results based on the requirements defined in the Concept

Key words: education, continuous education, integration, technology, program, workshop, methodological support, material and technical base, electronic textbook, distance education.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimlarida texnologik ta’limning uzviyligini ta’minlash konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli hamda 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli va 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari, 2025-yilgacha O‘zbekiston sanoatining rivojlanishi konsepsiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida ishlab chiqilgan.

Konsepsiya maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimlarida texnologik ta’limni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilab beradi. Unda:

- rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda takomillashtirish;

- texnologik ta’lim me’yoriy hujjatlarini ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash;

- texnologik ta’lim bo‘yicha maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimlari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarining uzviyligini ta’minlash hamda amaliyotga tatbiq etish;

- texnologik ta’lim mazmuni va mohiyatini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, o‘qitishning yangi aspektidagi metodikasini ishlab chiqish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimlarida texnologik ta’limning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash va bitiruvchilarni kasb-hunarga o‘rgatish orqali hayotga tayyorlash ishlarini tashkil etish;

- texnologik ta'lim mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish;

- texnologik ta'limni tashkil etishning zamonaviy shakl, metod va vositalari asosida dual tizimli o'quv modullarini ishlab chiqish;

- ta'lim jarayoniga milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bitiruvchilarni tarbiyalashning samarali metodikasini keng joriy etish; texnologik ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

- o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini va natijaviyligini ta'minlashda innovatsionpedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish; texnologik ta'limning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish;

- erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlanishi hamda tadbirkorlik, kasanachilik faoliyatini keng joriy qilishda o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlarini aniqlash;

- me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kabi muhim maqsadlar belgilangan.

Hozirgi vaqtda texnologik ta'limning holati va to'plangan tajribalar tahlilidan: Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shartligi, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, shuningdek, ortiqcha xarajatlarni kamaytirishi, natijadorlikni oshirishi, qisqasi, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkinligi anglab etildi. Bugungi kunda maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda sanoatlashgan mamlakatda ta'lim olishi, yashashi va ishlashi uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari oxirgi 30 yil ichida jamiyatni o'zgartirdi. Malakali xodimlarning yetishmasligi, o'rta bo'g'in rahbar va xodimlarning past darajadagi malakasi, ishchilarda mehnatga nisbatan rag'batning yo'qligi, ishchi va muhandis-texnik kasblar obro'sining tushgani, eskirgan ish usullaridan foydalanish kabi muammolar o'z yechimini kutmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar o'z iqtisodiy doktrinalarida tashqi tahdidlarga qarshi kurashishga, rivojlanayotgan mamlakatlar esa ichki tahdidlarga qarshi kurashishga ko'proq e'tibor beriladi. O'zbekiston uchun tashqi tahdidlardan biri ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida ortda qolishdir. Tashqi va ichki tahdidni bartaraf qilish, sanoat rivojlanishining 4.0 industriyasiga barqaror o'tishning eng muhim omillaridan biri – bu texnologiya ta'limini tashkil etishda maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida uzviylikni ta'minlash va yangi bosqichga ko'tarishdir. Umumiy

o'rta ta'limda 1-4-, 5-9- texnologiya fanidagi mazmun jihatidan uzviylik va uzluksizlikning ta'minlanmaganligi o'z yechimini kutmoqda. 10-11-sinflarda texnologiya fani o'qitilmasligi yosh avlodning kasb tanlashida salbiy holatlarga olib kelmoqda.

Sanoatdagi texnologik o'zgarishlariqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishda innovatsiyalarning rolini kuchaytiradi va ko'plab an'anaviy o'sish omillarining ta'sirini kamaytiradi. Eng yangi avlod texnologiyalarining rivojlanishidagi kechikish milliy iqtisodiyotningraqobatdoshligini pasaytirishi, shuningdek, o'sib borayotgan geosiyosiy raqobatsharoitida uning zaifligini oshirishi mumkin.

Xususan, sanoatda kutilayotgan yangi texnologik o'zgarishlar sharoitida maktabgacha, umumiy o'rta, professional ta'lim tizimlarida texnologik ta'lim o'quvchi-yoshlarda ijodkorlik qobiliyati va mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, ularda oliy ta'lim bosqichida yoki mustaqil hayotga qadam qo'yishda zarur bo'ladigan bazaviy kompetensiyalar va dunyoqarashlarni shakllantirishda asosiy yechim bo'lib xizmat qiladi

Texnologik ta'lim o'zlashtirgan bitiruvchilar sanoat sohasining barcha tarmoqlarida xususiy injenering, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik bazalarining yanada rivojlanishi, bir so'z bilan aytganda yuqori qiymatli raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishida "drayver" rolini bajaradi.

Ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada sanoatlashgan Filandiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, AQSH, Isroil, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida ham texnologik ta'lim ishlab chiqarishning asosiy bo'g'ini hisoblanib, jahon mehnat bozoriga malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim bosqichlari va tashkil etuvchilaridan biri deb qaraladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida.

I. Uzviylikning metodologik asoslari va ilmiy-pedagogik tamoiyllari.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari va O'zbekiston Respublikasining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi va boshlang'ich ta'lim standartlarining ta'limiy, pedagogik va uslubiy bog'liqliklari quyidagicha:

yagona talablar (Davlat talablari va boshlang'ich ta'lim standartlarini amalga oshirish shartlariga, asosiy ta'lim dasturining mazmuniga erishish);

tizimli yondashuv(bolaning beshta rivojlanish sohasiga tayanish, bolalarning yosh xususiyatlariga e'tibor berish);

bolalarni rivojlanish sohalari asosida o'qitish va tarbiyalashning umumiy maqsadlari (jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy va hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish qobiliyatlari, bilim jarayonini rivojlantirish, ijodiy rivojlanish).

II. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashga qo'shma pedagogik faoliyatni takomillashtirish.

Qo'shma pedagogik faoliyat quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan:

-rivojlanish markazi, konstruksiyalar tuzish va qo'l mehnati ta'limiy faoliyati, ta'limiy va mustaqil faoliyatlarda bolalarni harakatlanish faolligini maksimal darajada ta'minlash;

- maktabgacha yoshdagi bolalar va birinchi sinf o'quvchilari uchun turli xil ta'lim shakllarini, shu jumladan, integral faoliyat asosida aniq faoliyat turlarini qo'llash;

- o'quv jarayonida bolalar o'zlarining tajribalaridan foydalanishlari uchun sharoit yaratadigan loyiha-tadqiqot faoliyatidan foydalanish;

- faoliyatni bolalarning kundalik (frontal, kichik guruhlar) hayoti, ularning mustaqil(o'yin, badiiy, konstruktiv va boshqa) faoliyati bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlash;

- bolalar faoliyati mazmunini funksional ravishda simulyatsiya qiladigan maktabgacha ta'lim tashkilotida va boshlang'ich maktabda ham rivojlantiruvchi muhitni qo'llab quvvatlash;

- bolalarda fikrlash, tasavvurni (hayolot), qidiruv faoliyatini faollashtiradigan usullarni, ya'ni o'rganishda muammolilik elementlarini yanada kengroq qo'llash;

- o'yin texnikasidan kengroq foydalanish, hissiy jihatdanahamiyatli vaziyatlar, mustaqil amaliy faoliyat uchun sharoitlar yaratish;

- katta maktabgacha yoshdagi guruhlarda va boshlang'ich maktabning 1-sinfidagi darslarda bolalar faoliyatining barcha turlarida, bolalarning muloqot shakllarini o'zgartirish.

III. Yagona tarbiya makonini shakllantirish.

Yagona subyekt-fazoviy rivojlanish muhitini yaratish muhim omil hisoblanadi. Uzviylik uchun asos:

tarbiya maqsadi va vazifalarining birligi;

yagona ta'lim va tarbiya makonini yaratish;

tadbirlarni loyihalash va tayyorlashda birgalikda ishtirok etish;

bolalarni faol ijodiy faoliyatga jalb qilish.

Yagona ta'lim va tarbiya makonining mazmuni katta maktabgacha yoshdagi bolalarda hamda kichik boshlang'ich o'quvchilarda vatanparvalikni, mehnatsevarlikni va odobaxloq tarbiyasini ta'minlaydi.

IV. Tarkibiy jihatning psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning mazmunli jihatlari.

Uzviylikni psixologik qo'llab-quvvatlash muhim vazifa bo'lib, u quyidagi vazifalarni hal qiladi:

Maktabgacha yoshda (o‘yin texnologiyalaridan foydalanishini olgan holda ta‘lim jarayonida ta‘lim faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish);

Boshlang‘ich maktabdagi yoshda (birinchi sinfga kirgan maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy rivojlanish darajasiga tayanish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalari shakllantirishdagi ishtiroki).

V. 6–7 Yoshli bolalarda shakllantiriladigan umumiy muhim kompetensiyalari.

Davlat talablari tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalari asosida belgilanadi. O‘z navbatida har bir rivojlanish sohasi kichik sohalarga bo‘lingan bo‘lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta kutilayotgan rivojlanish ko‘rsatkichlaridan (talablardan) iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘ziga borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, axloqiy me‘yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, “Men” obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

Kompetensiya bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuyidir. Boshlang‘ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat‘iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

6–7 yoshli bolalarda shakllantiriladigan umumiy muhim kompetensiyalari:

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.

O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me‘yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tuta olish mahorati.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarda belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

VI. Bolaning rivojlanish sohalari.

1. Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi:

- yirik motorika;
- mayda motorika;
- sensomotorika;
- sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik.

2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish:

- “Men” konsepsiyasi;
- hissiyotlar va ularni boshqarish;
- ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

3. Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari:

- nutq va til;
- o‘qish malakalari;
- qo‘l barmoqlari mayda motorikasi.

4. Bilish jarayonini rivojlanishi:

- intellektual-anglash malakalari;
- elementar matematik malakalar;
- tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

5. Ijodiy rivojlanish:

- dunyoni badiiy tasavvur etish;
- badiiy-ijodiy qobiliyatlar.

Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat. Bola o‘zining tabiiy muhitiga qiziqishini namoyon qiladi, fanni o‘rganishda faol. Jumladan, quyidagilarni bajara olishi kutiladi:

- qurilmani mustaqil o‘lchaydi (balandligi, uzunligi, kengligi bo‘yicha);
- shaxsiy qiziqishi va kuzatuvlariga bog‘liq savollar beradi;
- shaxsiy taxminlari haqida gapiradi, avvalgi va hozirgi tajribasini umumlashtiradi va tushuntiradi;
- tadqiqotda yechimini talab etayotgan muammoni belgilaydi;
- turli resurslarni qo‘llagan holda shaxsiy kuzatuvlarni tasdiqlaydi va ta’riflaydi; atrofmuhitni yaxshilashda ishtirokning muhimligini tushunadi (masalan, axlat chiqindilarini tashlash, ularni ajratish, daraxt va gullar ekish, suv, elektr energiyasi va qog‘ozni asrash).

Maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsadi:

- bolaning ta’lim olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirishni ta’minlash;
- bolaning jismoniy, aqliy va ma’naviy kamolotini saqlash va mustahkamlash;
- umumta’lim muassasalarida bolaning jamiyatga moslashishini va ta’lim olishni davom ettirishga tayyorligini ta’minlash.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti vazifalari:

- bolalarga, shu jumladan, o'ziga xos ehtiyojlari bor bolalarga yakka tartibda ta'lim dasturlaridan foydalanish, shuningdek, o'z vaqtida inkluziv maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish;
- bolalarda Vatanga muhabbat tuyg'usini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatni shakllantirish;
- bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;
- bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang'ich ta'limga tayyorligini ta'minlash;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etishdan iborat.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy rivojlantirishni ta'minlaydigan zamonaviy ta'lim dasturlari, ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish, tarbiyalanuvchilarni maktabga tayyorlash darajasini oshirish, maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy standartlarini yaratish bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimining birlamchi yo'nalishlaridan biri maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash hisoblanadi. Estetik tarbiyalashni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tiladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlari, ya'ni "Rasm chizish", "Applikatsiya", "Konstruksiyalar tuzish va qo'l mehnati", "Plastilin va loydan yasash" katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida applikatsiya texnologiyasida tasvirlash jarayonida bolalarda:

- badiiy didni tarbiyalash;
- amaliy badiiy faoliyat va malakalarni rivojlantirish;
- fantaziya, ijodiy fikrlash va tasavvur qilish, idrok qilishni rivojlantirish;
- qo'lning aniq harakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirish;
- kasbiy badiiy ijodiy faoliyat kurtaklarini namoyon bo'lishi uchun imkon yaratish kabi ta'limiy tarbiyaviy masalalar hal etib boriladi.

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli yuritishga va ta'lim-tarbiya jarayonlarini talab darajasida tashkil etishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar mavjud.

Bular quyidagilar:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida ishlarni to'laqonli yo'lga qo'yilmaganligi;

- ta'lim-tarbiya usullarining ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarning yo'qligi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilar uchun zamonaviy sharoit va ehtiyojlar asosida ishlab chiqilgan o'quv-metodik adabiyotlar yetarli darajada ta'minlanmaganligi;
- mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlarga hamohang tarzda maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun konstruksiyalar tuzish va qo'l mehnati, tasviriy faoliyatlari bo'yicha zamonaviy mazmun-mohiyatini kasb etuvchi metodik ishlanmalar yetarli darajada yaratilmaganligi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining malakali pedagog kadrlar (tasviriy faoliyatga o'rgatish malakalari, rasm chizish, loydan narsalar yasash, qog'ozdan qirqib yopishtirish, konstruksiyalar tuzish malakalari yetarli emas) bilan to'liq ta'minlanmaganligi;
- konstruksiyalar tuzish va qo'l mehnati, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini tashkil etish uchun multimedia va didaktik materiallarning yetishmasligi;
- maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylikning mavjud emasligi;
- zamonaviy o'quv metodik materiallar va ko'rgazmali qurollarning yetishmasligi;
- ilg'or ish tajribalarni o'rganish, ularni ommalashtirish ishlari talab darajasida tashkil etilmaganligi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida.

O'quvchilarga ta'lim berishning zamonaviy innovatsion uslublarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan industrial-texnologik lokomotivlari qatoriga kirishi, ya'ni 2030-yilga kelib iqtisodiyotning sanoat va texnologik tarmoqlari bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan biridir.

Xalq ta'limi vazirligi tizimida 11 yillik ta'lim joriy qilinishi va o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi tizimining funksiyalari o'zgarishi hisobiga texnologiya fanini o'qitishning institutsional rivojlanishida ayrim bo'shliq va kamchiliklar yuzaga kelgan, shu jumladan:

- Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fani mazmunini uzviylikini ta'minlash;
- texnologiya fanining ilmiy metodik ta'minoti (darslik, o'qituvchi kitobi, ish daftari, multimedia ilovalar, didaktik materiallar va boshqa) yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan amaldagi texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emas;
- texnologiya fanini o'qitishda metapredmet kompetensiyalar va fanlararo bog'liqlikning kamligi;

- texnologiya fanini 10-11 sinflarda o‘qitilmasligi natijasida uzluksiz ta’lim tizimida uzviylikning ta’minlanmaganligi;
- texnologiya fani me’yoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi va darslik, ishchi daftar va o‘qituvchi kitoblari, multimedia ilovalari, didaktik materiallarning yetishmasligi;
- texnologiya fani mazmuniga mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika, arduino dasturlash tizimi kabi O‘zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo‘ladigan elementlarning kiritilmaganligi bo‘lajak maktab bitiruvchisi va mutaxassislarning kasbiy sifatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;
- o‘quvchilarda ta’lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish uchun o‘quvchilarda zamonaviy texnika, mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika sohasidagi takdil kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jihoz va uskunalarning yetishmasligi;
- texnologiya fani moddiy-texnika bazasini eskirganligi, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi hamda budjetdan mablag‘ bilan ta’minlash bo‘yicha yetarli choralar ko‘rish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmaganligi;
- pedagoglarning metodik ta’minotini yaxshilash, texnologiya fani o‘qituvchilari va mentorlari uchun masofadan o‘qitishning yangi shakllari joriy etilmaganligi va h.

Professional ta’lim tizimida.

- ta’lim tizimlari o‘rtasida uzviylikni ta’minlanmaganligi mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sifatiga ta’sir etayotganligi;
- ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etilmaganligi;
- innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlar ishlab chiqilmaganligi;
- ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashma -gan ligi;
- o‘quv jarayoniga O‘zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to‘laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashlariga to‘sqinlik qilayotganligi;
- tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlarini joriy etiladigan ta’lim muassasalari tarmog‘I tashkil etilmaganligi;
- xalqaro tasniflagichning darajalariga mos keluvchi ta’lim dasturlarini ishlab chiqilmaganligi;
- umumta’lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta’lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlarida uzviylikni ta’minlanmaganligi;
- “Hayot davomida ta’lim olish” prinsipi asosida kasblar va mutaxassisliklarni o‘rgatish tizimi mavjud emasligi;

- O‘zbekiston Respublikasida milliy kvalifikatsiya tizimi va ramkasini, Milliy professional standartlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga e‘tibor qaratilmaganligi;
- professional ta‘lim tizimida ishlab chiqarish ta‘limi ustalarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yangi tizimi joriy etilmaganligi va h. **Oliy ta‘lim tizimida.**

Oliy ta‘lim muassasalarida texnologik ta‘lim yo‘nalishida o‘qituvchi pedagogkadrnlarni tayyorlash sifati bugungi kun talablariga mos kelmasligi, texnologiya fanlarini o‘qitishni tubdan qayta ko‘rib chiqish va zamon talabiga mos ravishda yangilashni taqozo etmoqda.

- Texnologik ta‘lim yo‘nalishi bakalavr va magistratura mutaxassisliklarida umumta‘lim maktablarida (1- 4, 5- 9) texnologiya fanini o‘qitishga tayyorlash va barcha sinflarda texnologiya fani mazmunini uzviylikni ta‘minlash;
- texnologik ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy metodik ta‘minoti yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- texnologik ta‘limning moddiy-texnika bazasini eskirganligi, zamonaviy texnik va texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi hamda budjetdan mablag‘ bilan ta‘minlash bo‘yicha yetarli choralar ko‘rish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmaganligi;
- xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta‘limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan texnologik ta‘lim o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta‘limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimiga bosqichmabosqich o‘tishda beparvoliklarga yo‘l qo‘yilayotganligi;
- texnologik ta‘lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini takomillashtirilmaganligi;
- xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga texnologik ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlari tashkil etilmaganligi;
- ta‘limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligini yo‘lga qo‘yishda me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni eskirganligi hamda hamkorlik bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturlarda bosqichma-bosqich uzviylikni ta‘minlanmaganligi;
- o‘quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqilmaganligi;
- ta‘lim berishda qo‘llanilayotgan ta‘lim-tarbiya usullarining ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarning yo‘qligi;
- hamkorlikning yangi shakllarini rivojlanmay qolayotganligi va qo‘shma ta‘lim dasturlarining mavjud emasligi;

- texnologik ta'lim samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida ishlarni to'laqonli yo'lga qo'yilmaganligi.

Texnologik ta'lim konsepsiyasining asosiy maqsadi va rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari.

Quyidagilar texnologik ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi:

texnologik ta'limni mehnat bozori talablari asosida modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish;

bitiruvchilarda texnik obyekt hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatda qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, mehnat bozorida zarur bo'ladigan kompetensiyalarini shakllantirish;

texnologik savodxonlik, tanqidiy, kreativ va tizimli fikrlash, mustaqil qaror qabul qila olish, o'z intellektual qobiliyatlarini namoyon eta olish va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish.

Texnologik ta'limni rivojlantirish quyidagi vazifalarga asosan amalga oshiriladi:

ta'limning barcha bosqichlarida izchil texnologik ta'limni o'qitish tizimini yaratish;

texnologik ta'limning ilmiy metodik ta'minotini rivojlantirish;

texnologik ta'lim tizimining moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

texnologik ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

texnologik ta'lim tizimi maqomini uning fundamental bilimlarning inson yaratuvchilik faoliyati bilan bog'liqligini hamda atrof-muhit va umumiy ta'lim mazmuni o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ta'minlashdagi asosiy rolga munosib ravishda o'zlashtirishga erishish;

maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida o'qitilayotgan texnologik ta'lim jarayonini o'zaro uzviyligini ta'minlash;

fan doirasida o'rgatiladigan va mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun istiqbolli deb

tanlangan kasblar hamda mutaxassislarni tayyorlashning tayanch bosqichi sifatida xizmat qilishi;

kadrlarni tayyorlash, mavjud kadrlar ta'minotini modernizatsiyalash va insonpotensialidan samarali foydalanish;

malaka talablarini, shuningdek, yangilangan ta'lim standartlarini joriy etish uchunegallanadigan ko'nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish;

fanning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish;

ta'limning barcha bosqichlarida fan bo'yicha olimpiadani tashkil etish nizomini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

iqtidorli o'quvchi-yoshlarni aniqlash, baholash va rag'batlantirish tizimini texnologiya, shu jumladan, dizayn, muhandislik, robototexnika, elektronika, bolalar uchun ixtiro masalalarini yechish algoritmi kabi tanlov va ko'rgazmalarini tashkil etish;

intelektual salohiyatning mehnat bozoridagi o'rni haqidagi madaniyatni shakllantirish;

perspektiv texnologik, zamonaviy standartlarga mos keluvchi, yo'nalishlarni tadqiq qilish va joriy etish;

o'quvchilarda loyihalash va tadqiqot ishlari madaniyatini shakllantirish;

ta'limning ilg'or amaliyotini ommalashtirish va texnologik ta'limni o'qitishning shakllari xilma-xilligini rag'batlantirish;

amaliy jihatdan texnologiya sohasidagi bilim – texnologiyalar transferi bilan bog'liq, keng ma'noda kelajak avlodni yuz berishi mumkin bo'lgan texnologik o'zgarishlar bilan ishlashga tayyorlash.

Texnologik ta'limning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqishda uzviylikni ta'minlash

Texnologik ta'limning o'quv-metodik ta'minotini rivojlantirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar va milliy an'analar uyg'unligida texnologik ta'lim bo'yicha davlat ta'lim standartini ishlab chiqish;

texnologik ta'lim bo'yicha uzviylikni e'tiborga olgan holda ta'lim bosqichlari uchun alohida tartibda bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish;

texnologik ta'lim tizimi o'quv yuklamalarining minimal hajmi hamda ularning

taqsimoti yuzasidan takliflar tayyorlash;

texnologik ta'lim tizimi bo'yicha o'quv-metodik majmualarni (darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasi va boshqa) yangi avlodini bosqichma-bosqich ishlab chiqish;

texnologik ta'lim tizimi mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish;

xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablarini ishlab chiqish.

Texnologik ta'lim bo'yicha o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

o'quv-metodik majmualar ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

o'quvchi-yoshlarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik

xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;

o'quvchi-yoshlarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo'yiladi:

a) didaktik talablar:

- o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash;
- matnlar axborot berishga emas, balki o'quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi;
- qiziqarli, lo'nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo'lishi;
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik

talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

• ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi;

• rasmlar ko'rinishidagi illustratsiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo'lishi;

• yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, formulalar, ta'riflar va shu kabilar lug'at ko'rinishida ifodalangan bo'lishi lozim.

b) ilmiy-metodik talablar:

fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;

- o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi;
- o'quv fani mavzulari o'zbek adabiy tili qoidalariga to'liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;
- mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;
- milliy g'oya va O'zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli illustratsiyalar bilan boyitilishi;
- savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo'lishi;
- o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi;

- bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda mavhumlikka yo‘l qo‘yilmasligi;

- kasb-hunarga yo‘naltirishga oid matnlar va rasmlar, izohli lug‘at, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o‘stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish yuzasidan topshiriqlarni qamrab olgan bo‘lishi lozim.

v) pedagogik-psixologik talablar:

- keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma’lumotlar,

o‘quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga hamda amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laqonli qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

- o‘quv fani mavzularining yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma’lum faktlar, tushunchalar, qoidalar hamda fanlararo bog‘liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

- o‘quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o‘zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo‘lishi lozim.

g) estetik talablar:

- imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo‘lishi;
- matnlar o‘quvchi-yoshlarga ma’lum ijobiy hissiy ta’sirlarni o‘tkazishi va o‘quv faniga qiziqish uyg‘otishi;

- bo‘lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibligi ta’minlanishi;

- rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

d) gigiyenik talablar:

- matn va illustratsiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo‘lishi;

- harflarning kattaligi va qog‘ozning sifati (og‘irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos bo‘lishi lozim.

Texnologik ta’lim tizimining moddiy-texnik ta’minotini (moddiy-texnik bazasini) mustahkamlash bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

Maktabgacha ta’lim tizimida.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash, jumladan, maktabda “Texnologiya” fanida zarur bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tiladigan tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari, ya’ni “Rasm chizish”, “Applikatsiya”, “Konstruksiyalar tuzish va qo‘l mehnati”, “Plastilin va loydan yasash” faoliyatlarida shakllantiradi.

Ushbu bilim va ko‘nikmalarni samarali shakllantirish uchun quyidagilarni

mustahkamlash zarur:

O‘quv-metodik hamda didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o‘yinlar va o‘yinchoqlar, mebel, kompyuter texnikasi, o‘quv uskunalari bilan jihozlash;

maktabgacha ta‘lim sohasiga xususiy sektorning jalb qilinishi, uning ijtimoiy

javobgarligini oshirilishi, moliyalashtirish manbalarining kengaytirilishi va maktabgacha ta‘lim xizmatlari turlarining ko‘payishi;

maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishda moliyalashtirishni zaruriy darajada

amalga oshirilishi, maktabgacha ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatishda budget mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida.

“Zamonaviy maktab” davlat dasturi doirasida umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda yangi turdagi zamonaviy o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalarini barpo etish va muqaddam qurilgan o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalarini zamonaviy maktab namunasiga moslashtirishni ta‘minlash;

o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalarini zamonaviy mebel, jihozlar, asbob-uskuna va moslamalar, o‘quv-uslubiy materiallar, kompyuter, interaktiv doska, planshet va multimedia texnikalari, internet, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlashni ta‘minlash, ularning o‘z vaqtida yangilab borish choralari ko‘rish;

o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalarini jihozlanish darajasini xalqaro standartlarga javob beradigan o‘quv uskunalarini (asbob-uskuna va moslamalar, zamonaviy stanoklar) bilan ta‘minlash;

o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalarida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar

uchun kerakli xomashyo materiallarini davlat budjeti, homiy tashkilotlar va ta‘lim muassasasining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ta‘minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

davr talabi hamda o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda dolzarb kasblarning birlamchi asoslarini o‘rgatish uchun to‘garaklar, shu jumladan, robototexnika, dasturlash bo‘yicha yo‘nalishlari moddiy-texnik ta‘minotini mustahkamlash;

o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalarini moddiy-texnik ta‘minoti va xomashyo bazasidan oqilona foydalanish va asrab-avaylash;

xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda foydalanish.

Professional ta‘lim tizimida.

Professional ta‘lim muassasalarida kasb va mutaxassisliklarning xususiyatlaridan kelib chiqib texnologik ta‘limga tegishli bilim, ko‘nikma va

malakalarning qo‘llanilishi natijasida nazariy va amaliy mashg‘ulotlarining sifatli o‘qitilishini ta‘minlashda quyidagi jihatlar muhim o‘rin egallaydi:

professional ta‘lim muassasalarida kasb-hunar egallash mazmun mohiyatiga

tegishli, kasb va mutaxassisliklar xususiyatidan kelib chiqqan holda maxsus fan xona -larini tashkil etish;

o‘quv xonasini o‘quvchilarning yoshiga, o‘zlashtirish darajalarini inobatga olgan holda kasb-hunar sirlarini o‘rganishda oddiydan murakkabga qarab yo‘naltirilgan o‘quv metodik, ko‘rgazmali vositalar, virtual stendlar, kasbga oid turli maketlar majmualari ta‘minotini yaratish;

o‘quvchilar tomonidan o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar uchun xomashyo

materiallari bilan ta‘minlangan bo‘lishi;

o‘quvchilar uchun kasb-hunarlarini mukammal o‘rganib borishlari uchun mustaqil ravishda shug‘ullanishlarida amaliy mashg‘ulotlar topshiriqlar bazasini mavjud bo‘lishi;

professional ta‘lim muassasalarida turdosh kasblar (bir nechta o‘xshash kasblar) bo‘yicha maxsus o‘quv ustaxonasini tashkil etish;

o‘quv ustaxonasi zamonaviy o‘quv jihozlari, animatsion o‘quv materiallari bilan ta‘minlangan bo‘lishi;

o‘quvchilarning o‘zlari egallaydigan kasblariga bo‘lgan qiziqish va ko‘nikmalarini yana-da oshirish maqsadida, o‘quvchilar tomonidan texnologik ta‘limning amaliy mashg‘ulotlari vaqtida tayyorlanadigan mahsulotlarni sifatiga mos ravishda sotishni yo‘lga qo‘yish va shu orqali ta‘lim muassasasiga budjetdan tashqari mablag‘lar topishni rivojlantirish hamda o‘quvchilar mehnatini rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish;

ta‘lim turlari bo‘yicha texnologik ta‘limni o‘qitishda uzluksizligi ta‘minlangan yagona ta‘lim dasturini joriy etish;

xorijiy ta‘lim muassasalari bilan pedagogik tajriba almashish tizimini yo‘lga qo‘yishda zamonaviy kompyuter texnikalari va internet tarmog‘ining uzluksiz ishlashini ta‘minlash;

o‘quvchi yoshlarni amaliy mashg‘ulotlar davrida texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish tartiblari bo‘yicha ko‘rgazmali vositalar bilan ta‘minlash;

professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilari uchun kasbga oid o‘quv adabiyotlaridan erkin foydalanishlarini ta‘minlash uchun elektron kutubxona platformasini joriy etish.

Oliy ta‘lim tizimida.

Jahon oliy ta‘lim tizimidagi texnologik ta‘lim yo‘nalishiga oid yetuk zamonaviy kadrlar tayyorlash davlat dasturi doirasida umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda malakali mutaxassislar tayyorlashda yangi turdagi zamonaviy o‘quv ishlab chiqarish

ustaxonalarini barpo etish, maxsus jihozlangan texnoparklar qurish va muqaddam qurilgan o'quv ishlab chiqarish ustaxonalarini zamonaviy xorijiy tajribalar asosida jahon standartlariga moslashtirish;

o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari hamda amaliy (ustaxona) xonalarini zamonaviy mebel, jihozlar, asbob-uskuna va moslamalar, o'quv-uslubiy materiallar, ustaxona jihozlari, kompyuter, interaktiv doska, planshet hamda multimedia texnikalari, internet, videokuzatuv tizimlari, masofaviy o'qitish jihozlari, 3D printer bilan ta'minlash, ularning o'z vaqtida yangilab borish choralarini ko'rish;

o'quv ishlab chiqarish ustaxonalarini xonalari, maxsus fanlarni o'qitish uchun texnoparklar qurish, ilmiy tadqiqot va laboratoriya tajribalarini o'tkazish obyektlarni yaratish jihozlanish darajasini xalqaro standartlarga javob beradigan o'quv uskunalari (asbob-uskuna va moslamalar, zamonaviy stanoklar) bilan ta'minlash;

masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimini keng joriy etish, talabalarning oliy ta'lim muassasasida o'qishni tamomlaganlaridan so'ng kutubxona fondi, axborot bazalaridan foydalanishini yo'lga qo'yish orqali ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish imkoniyatlarini kengaytirish;

“Energiya tejevchi texnologiyalar, nazorat-o'lchov va avtomatlashtirilgan tizimlar”, “Robototexnika va mexatronika” hamda “Oziq-ovqat mahsulotlari va texnologiyasi” yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot laboratoriyasini tashkil etish;

oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy dasturiy mahsulotlar bilan ta'minlash, o'quv va ilmiy jarayonlarni o'quv va laboratoriya uskunalari, shuningdek, laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa obyektlar) bilan muntazam ravishda zarur miqdorlarda ta'minlab borishning samarali mexanizmlarini yaratish;

kutubxona, o'quv ustaxonalari, laboratoriyalar infratuzilma obyektlariga nisbatan o'sib borayotgan ehtiyojni o'z vaqtida ta'minlash va zamon talablari asosida ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

innovatsion kutubxonalarni tashkil etish, ulardagi kitob fondini yangi avlod o'quv adabiyotlari bilan muntazam boyitish;

oliy ta'lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet bilan uzluksiz ta'minlash, talabalarning mustaqil ta'lim olishi uchun infratuzilma imkoniyatlarini kengaytirish;

talabalar, o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning elektron ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalaridan bepul foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish .

ADABIYOTLAR

1.Sh.Mirziyoyev. 2017—2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.

2. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisdagi O‘zbekiston respublikasi prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.

1.O.Qo‘ysinov, A.Nosirov .Texnologiyafani bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim milliy o‘quv dasturlari” Toshkent -2021y

2.S.X.Abdullayev, X.M.Akramov, I.T.Uluhanov, A.M.Matkarimov.“Texnologiya ta’limi metodikasi”. Darslik. Toshkent. 2022. - 365 b.

3.Muslimov N.A. Bo‘ljak kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiyshakllantirish. - T.: Fan. 2004. - 124 b.

4. Abdugaffor Khurmamatov, Abdurahim Matkarimov, Alisher Auesbaev, Usnatdin Utegenov Results Of Experiments On Studying The Composition And Purification Of Technical Water Of Oil And Gas Processing Plant // Processes of Petrochemistry and Oil Refining 2023.- №4

5. Ulukhanov I.T., Khusainova G.A., Ubaydullaev S.K. Pedagogical conditions for the formation of creative competence of students. web of scientist: international scientific research journal. ISSN: 2776-0979.Voliume 3, Issue 5, May. 2022. Impact factor(2022):7,565.

6. A.Маткаримов Применение технологии проблемного обучения в преподавании основ безопасности жизнедеятельности. Проблемы науки 2017.- №7 (20)

7. Ulukhanov I.T., Khusainova G.A., Ubaydullaev S.K. O‘quvchilarning kreativ kompetentlikini shakllantirish mezonlari. scientific journal of scientific progress. VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1601. 814-828 b.

8. A.Маткаримов Измерение и контроль вибраций при производственном процессе. Достижения науки и образования 2017.- №5 (18)

9. I.T.Uluxanov(NamDU, S.Ubaydullaev(AnDU). Texnologiya darslarida nazorat-o‘lchov asboblariidan foydalanishning amaliy ahamiyati. “Innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar amaliyotga, muammolar va yechimlar”. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 2020. 27 may.

10.I.T.Uluxanov, A.Zuparov(AnDU). Ta’lim jarayonida mul’timedia texnologiyalaridan foydalanish. “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitishning muammolari va yechimlari” mavzusida respublika miqyosida ilmiy-texnikaviy konferentsiya. Qo‘qon. 2020 yil 18 noyabr. 276-278.

11. I.T.Uluxanov, G.Xusayinova, M.Turg'unpo'latov. Moylovchi materiallar va ulardan samarali foydalanish usullari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar. 2021 yil. 3-son. 386-389.

12. А.Маткаримов Проблема охраны труда и промышленная безопасность на опасных производственных объектах. Достижения науки и образования 2017.- №6 (19)

13. I.T.Uluxanov, G.Xusayinova, Z.Quvvatova. Texnik fanlarni asoslarini o'rganishda ekologik masalalar yechimi. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar. 2021 yil. 3-son. 394-398.